



**“TELBA VA MASXARA OBRAZLARINING
IJTIMOIY-SOTSIOLOGIK IFODASI (ABDULLA QODIRIYNING
“O‘TKAN KUNLAR” VA “MEHROBDAN CHAYON” ROMANLARI
MISOLIDA)”**

Sadoqatxon O‘lmasali qizi Kamolova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

Sadoqat180894@gmail.com (+99890)623-35-23

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki roman qiyosiy tahlilga olinib, romanlardagi telba va masxara obrazlarining asardagi badiiy vazifasi, ijtimoiy-sotsiologik mohiyati, jamiyatdagi illatlarni fosh etishdagi roli, yozuvchining bu obrazlar orqali yuzaga chiqargan haqiqatlari tahlil qilinadi. Telbalik va masxarachilik fenomeni o‘zbek adabiy an’anasidagi satirik usul bilan bog‘lanib, Qodiriy asarlarida qanday ijtimoiy ahamiyat kashf etgani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: fenomen, telba, masxara, kulgi, mohiyat, hajv, sahna, jaholat

Kirish:

Badiiy adabiyot ulkan hodisa ekanligi hech birimizga sir emas. Qancha chuqur o‘rgangan sari uning go‘zalligi va falsafasi insonni o‘ziga jalb qiladi. O‘zbek adabiyotida telba, ayyor va masxara obrazlarida ham mana shunday chiroyli hodisa sifatida o‘rganish, badiiy asarlarga kiritilish mohiyatini



o'rganish albatta yana bir adabiyot nazariyasining bebaho eshiklarini kitobxonga ochadi.

Asosiy qism:

Abdulla Qodiriy jamiyatdagi ilmsizlik, adolatsizlik kabi nuqsonlarni ochishda telba va masxara obrazlaridan kulgu orqali unumli foydalanadi. O'ziga nisbatan qo'llagan taxalluslarida ham buni ko'rishimiz mumkin. Bu haqida ijodkorning o'zi "Ijod mashaqqati" kitobida aytib o'tadi: "Kulgi maydonida keyingi yangilik sajiya muzikasidir. Ya'ni kulgilikning uchinchi poyasi sajiyaviy kulgisida. Biz buning misollarini manim Toshpo'lat tajang, Kalvak Maxzum, Ovsar va «O'tgan kunlar» romanimdagi O'zbek oyim va boshqalarda ko'ramiz. Bizning yangi adabiyotimizda xarakterli misollar oz, balki yo'q darajasida bo'lganlikdan buning uchun misolni faqat o'z asarlarimdan oldimki, bunda meni ma'zur ko'rsinlar. (Қодирий, Абдулла. Ижод машаққати: Бадиий ижод тўғрисидаги фикр ва мулоҳазалар / (Нашрга тайёрловчи Н. Каримов). - Т.: Ўқитувчи, 1995. — 96.) Adib kulgu haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan xarakter kulgusini ayricha tasnif qiladi. Va uning yuqoridagi ikki romanida ham aynan mana shu "xarakter kulgu"sining o'rni katta.

Adabiyotda bir necha xil kulgi yo'llari bo'lsa ham (masalan, piching, kesatish, kinoya, tag'oful va boshqalar), lekin eng mo'tabari xarakter kulgisidirki, yuqorida aytib o'tdik, ammo bunda quyidagi shartlarning topilishi kerak:

1) qahramonning xarakteri (ya'ni sizning olgan masalangiz va yoki kishingizning o'zidagina topilgan tabiat), masalan, so'z, ish, fe'l va...

2) shu xarakteristika ichidan siz bermakchi bo'lgan ma'no yoki iborotning o'z-o'zidan tomib turishi.



3) shu ikki turlik narsa ichidan istehzo yoki xo-xo-xo «modda»sining tabiiy suratda kelib chiqishi.

Kulgining tub mohiyatini tushuntirishning qiyin tomoni shundaki, birinchidan, kulgi xuddi olmos kabi ko‘p qirralidir (dunyodagi hamma narsani “jiddiy” va “kulgili” tushunish mumkin). Ikkinchidan, kulgi favqulodda jo‘shqindir, u turli qiyofalarga kira oladi. Yozuvchi hajviy asarlarida hayotni sof mafkuraviy nuqtai nazardan qarab, biryoqlama qoralash, fosh etish yo‘lidan bormaydi, hodisalar tasviriga xolisona yondashadi, holatning bor murakkabligi, ziddiyatlari bilan kitobxonga taqdim etadi.

“O‘tkan kunlar” romanida telba obrazi yoki kulgili sifatida tahlil qilinadigan obrazlar ko‘p emas, ammo strukturaviy-g‘oyaviy jihatdan muhim vazifa bajaradi. Bunday obrazlar orqali adib adolatsiz tuzum ortidagi kuchli bosim shaxs ruhiyati chegaralarini buzishi va sindirishi mumkinligini, insonni o‘zgarmas tartib va zulm muhiti hayotdan ajratib qo‘yishini ko‘rsatadi. Qodiriy sovchilik, diniy marosimlar, to‘y sahnalarini tasvirlash jarayonida kichik epizodik obrazlardan riyokorlik va martaba ortidan quvadigan insonlarning illatlarini fosh etishda, masxara sifatida yuqori salohiyat bilan foydalanadi. Bu obrazlar orqali yozuvchi ijtimoiy qatlam orasidagi ziddiyatni kuchaytiradi, mansabdor shaxslarni kulgu orqali tanqidga oladi. Asarda ruhiy nosog‘lom obrazlarni ham uchratamizki, Qodiriy ushbu obrazlar orqali ijtimoiy, diniy, siyosiy jihatdan yashashda kuchli ruhiy bosim mavjudligiga ishora qiladi. Yana ushbu obrazlarni norozilik, moddiy notenglik, og‘riqlar va adolatsizlik sifatida talqin qilsak adashmaymiz. Marginal toifa (jamiyatda alohida ijtimoiy guruhlardan chetda qolgan, ularning manfaatlari va maqsadlaridan uzoqlashgan, begonalashgan shaxslar yoki guruhlar hisoblanadi. Bu holat ijtimoiy, etnik, kasbiy va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin va odamning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashmasligi yoki madaniy va axloqiy



qadriyatlarni inkor etishiga olib keladi.)olarak, ijtimoiy adolatni izlagan obrazlar desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Abdulla Qodiriy ikkinchi romani “Mehrobdan chayon” da masxara obrazini “Qiziqqlar” bobida yanada mahorat bilan qo‘llaydi. Riyokor obrazlarni ochishda yaxshigina ko‘zgu albatta masxara obrazi edi. Jamiyatlardagi ma’naviy yemirilish belgisi o‘larak, manfaat uchun har qanday g‘oya yoki odam tarafini oladigan kimsalar, voqealarga kulib qarab, lekin hech qachon mas’uliyat olmaydigan “mayda odamlar”, jamiyatning istehzoli, loqayd qatlamlarini ko‘ramiz. Ularning masxaragarchiligi ijtimoiy befarqlikning badiiy ramzidir.

Ijtimoiy fojiani qiziqchilar orqali ko‘rsatish-yozuvchi istagancha gaplarini ochiqdan ochiq ayta olishi demakdir. Ushbu bob orqali asar drammatik jihatdan kuchga to‘ladi. Shayxning kirdikorlari tanqid ostiga olinib, ayblari chuqur ochilishiga xizmat qiladi. Jaholatga botgan millatni, ilm ahlini tanqid qiladi. Ilmsizlik va jaholat qahramonlarning taqdiriga ham salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Yana bir jabhaga diqqat qilsak, nega adib “Qiziqqlar” deya nomladi? Chunki kuzatuvchanlik, ochiq-oydin aytish va ko‘rsatish masxara-qiziqchilarning ishi. Shuningdek, Qodiriy ushbu jarayonni drama orqali ifodalashi ham ushbu janrning eng ommabop tomosha turi sifatida deyarli barcha xalq madaniyatida mavjudligi bilan izohlanadi. Odamlar ko‘p joylarda, bozorlarda tomosha ko‘rsatish esa xalq ongiga kirib borishning eng qulay usuli, biroq asarda xonning qarshisida sahnaga chiqishlari, xuddiki, Yevropa adabiyotidagi karnaval manzarasiga o‘xshab ketishi, hukmdorga kulgi orqali yetkazilishi ham diqqatni tortadi, ham yozuvchining maqsadiga yaqinlashtiradi.

Aytish joizki, kulgi-haqiqatni aytishning yagona shakli. Yashayotgan davr muhiti, siyosati va hayotning shunday jabhalari borki, bu faqat kulgi orqaligini yoritiladi. Inson bilan doimo kulgi va fojia yonma-yon yuradi. Kula oladigan ham, kuldira oladigan ham inson zotidir. Abdulla Qodiriy shu sabab o‘z davrida



“kuldirib yig‘latuvchi-yig‘latib kuldiruvchi” ta’rifini olgan. (Tashmuxeimedova L.I. O‘zbek adabiyotida kulining o‘rni.//O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild. — № 1 (54). — B. 190-205)

“Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va u his etgan, ammo ifoda qila olmagan masalalariga tarjimondir. Xulosa, hajviy tanqidning tabiatidagi kulgilik unsuri avomning mahbubi, tag‘in to‘g‘risi uning o‘z ijodidir” (Qodiriy A. Kichik asarlar. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969.184-bet) Darhaqiqat, shayxislomdek makkor va laganbardor kimsalarning asl yuzini hukumdorning qarshisida ochib tashlash uchun ham ushbu unurning ro‘li katta. Ijtimoiy-sotsiologik jihatdan asar qahramonlariga yuklatilgan vazifaning salmog‘iyam og‘irgina. Qodiriy fikricha, “Yozuvchilikda bir qonun bor: hammadan ilgari ma’no, undan so‘ng shu ma’noni-fikrni ifoda qilish uchun so‘z qurish, so‘z emas — san’atkorona, ya’ni shundog‘ so‘zki, aytmoqchi bo‘lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo‘lib, yasama bo‘lmasin! Fikr kulgi pardasidami - bu, albatta, viveskaga qarab bo‘ladir” (Qodiriy A. Kichik asarlar. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969.165-bet) Romanda xonning o‘zi masxaralarning haziliga nishon bo‘ladi, shu bilan birga ularning suhbatida qatnashadi. Yozuvchi qiziqqlarni himoyasiga olishni ham unutmagan. Qiziqqlar bayramona kulgi-sahnaning himoyasida. Ushbu bob yuzasidan Cho‘lpon quyidagilarni yozgan: “Podshohlar, sultonlar, xonlar, beklarning qamchilaridan qon tomgan zamonlarda xalq ko‘pchiligi o‘z dardini bir yulg‘un bachkisiga ham ayta olmagan davlarda xalqning og‘ir ahvolini bironta saroy yoki xalq qizig‘i chiqib, hazil yo‘li bilan yedirib yuborardi. Katta-katta izdihomlarda, yillik sayllarda qiziqqlar necha minglarcha xalqning juda zo‘r maroq bilan o‘zlariga tikilib turganlarini ko‘rgandan keyin, jamiyatning fayzi bilan dadillanib, mamlakatning kattalarini, beklar, hokimlar, qozilar, raislar, muhrdorlar va hatto xonlarning o‘zini tanqid qilib tashlar edilar”. Xuddi shunday holat qiziqqlar bobida ham ro‘y beradi. Qiziqqlar qo‘rqmay xonning

zolimligidan, bir og‘iz so‘z uchun dorga osilishlari mumkinligidan, shayxulislomday zotning mahalliychiligi-yu" ikkiyuzlamachiligidan so‘z ochadilar. Sayl davomida ularning quroli bo‘lgan xalqona-bayramona kulgi ayni daqiqalarda xonlar, yuqori tabaqa, amaldorlar oldidagi qo‘rquvning ustidan g‘alaba qozonyapti. (Tashmuxamedova L.I. O‘zbek adabiyotida kulgining o‘rni.//O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild. — № 1 (54). — B. 190-205)

Yozuvchining O‘tkan kunlar” romanidagi Qovoqdevona obrazi-asli telba, beliga qovoqlarini ilib olgan, har biriga bir amaldorning nomini qo‘ygan, biroq 3 sahifadagina berilgan bu epizod orqali yozuvchi ikkinchi bor Otabekning uylanganiga ishora qiladi xolos. Ammo amaldorlarning adolatsizligidan qiynalgan xalqning yuziga tabassum ulashishi orqali ijtimoiylik ham kasb etadi. Qiziqalar bilan telba-devona obrazining asl mohiyati va asarga kiritilishining asl sababi ham shu edi. Professor U. Normatov “Qiziqalar” bobi haqida: “Xalq turmushiga oid oliy haqiqat shuki, kulgi oldida shohu-gado barobar, hazil yo‘li bilan aytilsa oddiy faqiru haqir odamning har qanday o‘tkir tanqidiy gapi ham shohga malol kelmaydi”-deya chiroyli fikrni keltiradi.

Xulosa sifatida aytish o‘rinliki, millat dardi o‘zini bu millatning bir parchasi deya hisoblagan har bir insonning dardidir. U shoh yo gado-millat oldida javobgar. Qodiriy ham ikki romani orqali kuchli tanqid quroli sifatida telba-masxara obrazlaridan unumli foydalanadi. Ijtimoiy darajadagi konfliktlar epizodik obrazlar orqali ijtimoiy muammolar ochiladi. Masxara obrazining sotsiologik roli komediya va tanqid vositasi sifatida asarga kiritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cho‘lpon. Adabiyot nadur? — URL: <https://chulpon.uz/adabiyot-nadir/>
2. Normatov U. Qodiriy bog‘i. — T., 1995
3. Oybek. Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li. — T.: 1936. —132 b.

4. Qarshiboev M. Bir bahs saboqlari. □□ Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi. —T., 1994.
5. Qodiriy A. Kichik asarlar. — T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969.184-bet
6. Qodiriy A. Oʻtkan kunlar. Mehrobdan chayon. — T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1994.
7. Tashmuxamedova L.I. Oʻzbek adabiyotida kulgining oʻrni.//Oʻzbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild. — № 1 (54). — B. 190-205
8. Қодирий, Абдулла. Ижод машаққати: Бадий ижод тўғрисидаги фикр ва мулоҳазалар / (Нашрга тайёрловчи Н. Каримов). - Т.: Ўқитувчи, 1995. — 96.

